



## THE SPECIAL SIGNIFICANCE OF PSYCHOLOGICAL CHANGES IN CHILDREN AGED 6-7 YEARS

Kuchkarova Khurshida Muratjan's daughter

Nukus Faculty of Innovative Business and Technologies, 2nd year student, Psychology major

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15174315>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> April 2025

Accepted: 07<sup>th</sup> April 2025

Online: 08<sup>th</sup> April 2025

### KEYWORDS

Psychomotor development, social psychology, adaptation period, empathy, reflex, childhood trauma, cognitive development, play therapy, observation and experiment, Vygotsky and Piaget theory.

### ABSTRACT

*This article contains 6-7 Thoughts and comments were made about the specific significance of psychological changes that occur in young children. The article also contains views on the expression of objectivity and character traits as a psychological process within the framework of children's personal development. The article analyzes the scientific work of scientists on this topic and their theories, and explains the concepts related to child psychology.*

## 6-7 YOSH BOLALARDA PSIXOLOGIK O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS AHAMIYATI

Kuchkarova Xurshida Muratjan qizi

Nukus Innovatsion Instituti Biznes va texnologiyalar fakulteti

Psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15174315>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> April 2025

Accepted: 07<sup>th</sup> April 2025

Online: 08<sup>th</sup> April 2025

### KEYWORDS

Psixomotor rivojlanish, ijtimoiy psixologiya, moslashuv davri, empatiya, refleks, bolalik travmasi, kognitiv rivojlanish, o'yin terapiyasi, kuzatish va eksperiment, Vygotsky va Piagnet nazariyasi.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada 6-7 yoshlardagi bolalarda yuz beradigan psixologik o'zgarishlarning o'ziga xos ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, maqolada bolalarning shaxsiy rivojlanishi doirasida obyektivlik va xarakter xususiyatlarining psixologik jarayon sifatida ifodalanishi yuzasidan qarashlar mavjud. Maqolada ushbu mavzu yuzasidan ilmiy faoliyat olib borgan olimlar, ularning nazariyalari tahlilga olinib, bola psixologiyasiga oid tushunchalar izohlangan.*

**Kirish (Introduction).** Bugungi kunda bola psixologiyasini o'rganish va ilmiy jihatdan tadqiq etish orqali bolalar o'rtasida yuzaga kelayotgan ayrim salbiy jihatlar o'z yechimini



topmoqda. Haqiqatdan ham, psixologiya bolaning fikrlashi, his-tuyg'ularni ifoda etib berishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, ong va bilish tafakkurlarining rotsional tarzda amalga oshirishini yuzaga keltiradi. Ijtimoiy holat sifatida qaraladigan stress, depressiya, motivatsiya va shu kabilar 6-7 yosh chamasidagi bolalarda kuzatilishi mumkin bo'lgan holatlardandir. Shunga ko'ra, bolalarning yosh davriga ko'ra ijtimoiy yoki ta'limiy psixologiya, sport psixologiyasi va klinik psixologiyalar bilan aloqadorlikda eksperimental psixologiya ham bu yoshdagi bolalarda kuzatiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Turli xil ilmiy ishlari amalga oshirilgan. Shuningdek, bolalarda ijtimoiy emotsional rivojlanishning bolalik travmalaridan holi, erta rivojlanish jarayoni davridan o'rta bolalik davriga o'tishi jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. 6-7 yoshli bolalarda rivojlanishning nazariyalari asosida o'rganilishi asosan, Vygotsky nazariyasi, Piagetning rivojlanish nazariyasi va boshqalarda yorqin ifodalangan. Lev Vygotskyning "Yaqin rivojlanish zonasi" asari psixologik jihatdan 6-7 yoshlar chamasdagi bolalar uchun muhimi ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab ushbu yoshdagi bolalar katta yoshdagi insonlar bilan muloqot o'rnatishga, atrofdagi voqea hodisalarga munosabat shakllarini bildirishga moyil bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, empatiya ya'ni atrofdagi insonlarning his-tuyg'ulari anglanishi, rahmdillik tushunchalari, mehr-muhabbat kabi ruhiy holatlar shakllana boshlaydi. Jean Piagetning "Piagnetning kognitiv rivojlanish nazariyasi" asarida 6-7 yoshlar chamasidagi bolalarda tabiat va jamiyat, hayvonot olam o'rtasida muloqot shakllana boshlaydi. Bu esa bolalarda "an'anaviy operatsiya"lari ya'ni jamiyat bilan real muloqotni o'rnatish jarayonlari izohlanadi.

Erik Eriksonning "Shaxsiyat rivojlanishi" nomli asarida 6-7 yoshlar chamasdagi bolalarda muvaffaqiyat tushunchalarining yuzaga kelishi ifodalanadi. ushbu jarayon maktab davri ya'ni ta'lim olish o'z-o'zini anglash, jamiyatga moslashish jarayonida yuzaga keladi. Ushbu davrda ota-onalar farzandlarga nisbatan rag'bat tushunchalarini yuzaga keltirishlari lozim. Misol uchun: Maktabda erishilayotgan yutuqlar, ozodalik va sog'lom turmush tarzining tatbiq qilinishida bolalarga nisbatan rag'batning shakllantirilishi muhim ro'l o'ynaydi. Bu esa bolalarda o'zlikni anglash (Self-awareness) jarayonida mustaqil shaxs sifatida shaxsiy tuyg'ular, mustaqil xatti-harakatlarning o'z shaxsiyatiga mos tarzda ekanligini ifodalaydi.

Z.Nishanova, G'.Alimovalarning "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" asarida bolalar psixologiyasining shakllantirilishida psixofiziologik funksiyalar, individual yetuklik mezonlari, obyektivlik printsiplari, psixologik tadqiqotlar va ularning amalga oshirilish jarayonlari o'z ifodasini topgan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Bolalar bilan ishlashishda ularning qiziqishlari, ularga salbiy yoki ijobiy ta'sir o'tkazuvchi o'tkazuvchi detallar hamisha ota-onalar nazoratida bo'lishi shart. Umumiy qilib olganda, balog'at yoshigacha bo'lgan davr asosiy ravishda uchga bo'linadi.

- 1- davr. Erta rivojlanish;
- 2-davr. O'smirlik;
- 3-davr. O'rta bolalik.

Har bir davrda psixologik jarayonlar amalga oshiriladi. Moslashuv davrida bolalarda asosan, o'ziga bo'lgan ishonch, qat'iyat kabi tushunchalar shakllanadi.



“An’anaviy ravishda tadqiqot metodlari asosiy va yoidamchi metodlarga ajratiladi. Asosiy metodlar - kuzatish va eksperiment - bola taraqqiyoti haqida ishonchli ma’lumot bera oladi. Yordamchi metodlar - test, so’rov, faoliyat mahsullarini o’rganish - tasvirlovchi ma’lumot berib, bu ma’lumot asosida faqatgina taxminlarni ilgari surish mumkin bo’ladi. Kuzatish - psixologik tadqiqotning asosiy empirik metodlaridan biri bo’lib, psixologik hodisalarni maqsadga muvofiq va tizimli ravishda idrok etishga asoslangandir. Kuzatish - tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib maxsus tashkil etilgan idrok jarayonidir. Kuzatish quyidagi talablaiga javob berishi kerak:

1. Kuzatishdan oldin uning maqsadi aniq belgilanishi kerak: bola psixikasi, xulq-atvori va faoliyatining qaysi tomonlarini kuzatilishini aniqlashtirish lozim.

2. Kuzatish ob’ektiv bo’lishi kerak: kuzatishda faqat u yoki bu holat, hodisani qayd etish, uni sub’ektiv talqin etishga o’tmaslik lozim.

3. Kuzatish muntazam, katta vaqt oraliqlarisiz o’tkazilishi kerak.

4. Kuzatish shunday o’tkazilishi kerakki, bola uning kuzatilayotganini bilmasligi lozim. Kuzatishni amalga oshirayotgan tadqiqotchi kuzatilayotgan hodisalarni tez qayd eta olish mahoratiga ega bo’lishi zarur”<sup>1</sup>.

Bolalar psixologiyasini o’rganishda asosan, ularning qiziqishlari, rang tasvir muhim ro’l o’ynaydi. Shunga ko’ra, maktabda yoki bog’chada bolalar turli xil rangdagi o’yinchoqlar bilan o’ynashadi. Psixologiyada ushbu jarayon o’yin terapiyasi deb ataladi. Ushbu jarayon usul sifatida bolalarning psixologik jihatdan muammolarni hal qilishdagi qarashlar bilan bog’liq. Yetti yoshdan maktabga qadam qo’yishadi. Maktab davrida bolalarning ijtimoiy emotsional rivojlanish va psixomotor rivojlanish bilan aloqador bo’ladi. Bu davrda bolalar maktabda o’zlariga do’st, o’rtoq tanlashi, bajargan vazifalari uchun a’lo baholar olishi, sinfdagilar bilan muloqot qobiliyati bevosita xis tuyg’ular bilan amalga oshiriladi. Mana shunday jarayonda refleks harakatlarining psixologiya bilan bog’liq ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab, atrofdagi insonlar ulardagi salbiy va ijobiy reflekslarning chegaralanmagan holatda amalga oshirilishidir. Bu esa psixomotor rivojlanish ya’ni harakatlar va miya o’rtasidagi bog’liqlik bilan bog’liqdir. Psixomotor rivojlanish ya’ni harakatlar va miya o’rtasidagi bog’liqlik bilan bog’liqdir. 6 yoshdagi bolalar esa oldi yoshdagi bolalar esa o’yin jarayonida hissiy zo’riqish, yig’lash, ovunish kabi holatlarda psixologik jihatdan shakllana boshlaydi boshlaydi. “Bolada narsa-hodisalar olami, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, ona tili va odamlar o’rasidagi munosabatlarni anglash, ayni zamonda faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o’sib borishi, kattalarning bevosita yordami asosida amalga oshadi. Bu oilada ota-ona, maktabgacha ta’lim muassasalarida esa tarbiyachilar ko’magida yuz beradi. Asosan, mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Faoliyatdagi mustaqillik, o’zining tafakkurdagi mustakillikka asos bo’ladi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bosqich ularda murakkab harakatlarni takomillashtirish, elementar, gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini hosil qilish, nutqini o’stirish, ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davri hamdir”<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Nishanova. Z, Alimova. G. “Bolalar psixologiyasi va uni o’qitish metodikasi”. O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti. Toshkent - 2006. 10 b.

<sup>2</sup> Salayeva Laylo Shavkatovna. “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va uni o’rganilganlik holati”. Central Asosan Research Jurnal For Interdisciplinary Studies – 2022



Xotira. 6-7 yoshdagi bolalarda xotiraning rivojlanishi asosan, balog'at va o'smir yoshdagilarga nisbatan kuchlidir. Bu yoshda bola eshitish ko'nikmalari, ko'rish ko'nikmalari, refleks va harakatlar orqali o'z xotirasini boyitib boradi. Mutaxassislar fikricha ota-onalar bu davrdagi bolalar bilan muloqotda namunaviy jihatdan yaxshi fazilatlarni kashf etishi kerak. "Munosabatlarning kelishuvchanlik holati. Bu holatda ota-onalar kompleksi bolalar kompleksini hayotga yo'naltiradi. Masalan, ota-onaning doimiy ravishda boladan noroziligi, bolasini tanqid qilishi, urishishi, haqorat qilishi, tahqirlashi bolalarda o'z navbatida aybdorlik hissini shakllantirib, uni maktabda, maktabdan tashqari jamoalarda himoya reaksiyalarining yetishmasligiga, muloqotda o'zini chetga tortishiga, o'z-o'zini himoya qila olmaslikga olib keladi. Bu esa biror ta'sirga tezda javob qaytara olmaslik holatiga va o'zini tezda yo'qotib qo'yish holatiga olib keladi. Bolalarning bunday xulq atvori ota-onalari va atrofdagilar uni boshqarishiga, boshqalarning tobe bo'lib qolishga, bog'lanib qolishiga, mustaqil bo'la olmasligiga sabab bo'ladi. Ketma-ket bo'lmagan munosabatlar. Bunda ota-onalarning bola tarbiyasidagi ehtiyotsizligi, loqaydligi vabolaga nisbatan talabchan bo'lmasligi bilan ajralib turadi"<sup>3</sup>. Mavzu doirasida bolalarga ijobiy va salbiy ta'sir o'tkazuvchi omillar, ularning yuzaga kelib chiqish sabablari, uy sharoitida va maxsus mutaxassislar yordamida psixologik jihatdan bolalarning ijobiy yutuqlarga erishishi doirasida psixologiyaning tutgan o'rni doirasida ko'plab tajribalar amalga oshirilgan.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 6-7 yoshdagi bolalar psixologiyasini o'rganish va ularni ijobiy xarakter xususiyatiga monand tarzda tarbiyalash, psixologiya bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bolalarda shakllanadigan taqlid, kuzatish, fikrlash kabi tabiiy jarayonlarning stress va depression holatlardan holi holatda tarbiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

### References:

1. Nishanova. Z, Alimova. G. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent - 2006. 10 b.
2. Salayeva Laylo Shavkatovna. "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va uni o'rganilganlik holati". Central Asosan Research Jurnal For Interdisciplinary Studies – 2022
3. Abdurasulova Shoiri Kushakovna. "Bolalarga xos xarakter hislatlarni shakllantirishda oila tarbiyasi muhim omili sifatida". Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences - 2022

---

<sup>3</sup> Abdurasulova Shoiri Kushakovna. "Bolalarga xos xarakter hislatlarni shakllantirishda oila tarbiyasi muhim omili sifatida". Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences - 2022